

IN**TER EDUCATION****GLOBAL & STUDY**

**INSPIRATION FOR
THE
MODERN
RESEARCHER**

**2025
VOL.3. №5**

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и
методический журнал
Scientific-theoretical and
methodological journal

**2992-9024****ISSN**

**INTER EDUCATION
&
GLOBAL STUDY**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2025-yil, 3-tom, 5-son**

BUXORO – 2025

| | | |
|----------------------------------|---|---------|
| Aytmuratov B. T. | Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi kompetentligining ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati | 323–330 |
| Saidova Sh.Dj. | Yosh tennischilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish xususiyatlari | 331–337 |
| Shilmanov A.Y. | 15–16 yoshli futbolchilarining koordinatsiyasini rivojlantirishda vestibulyar qimnastikaning usul va vositalari | 338–347 |
| Kurbanova G. S. | Innovatsion yondashuvlar asosida biologiya ta'limi samaradorligini oshirish | 348–356 |
| Qurbanova Nargis | Futbol bilan 13–14 yoshli maktab o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash natijalari | 357–364 |
| Xudayberdiyeva N. B. | Dars jarayonlarini tashkil etishda kasbiy va tehnologik kompetentlikning ahamiyati | 365–371 |
| Bobur Xayitov | O'quv-mashg'ulot guruhi gandbolchilarini funksional holatini nazorat qilish | 372–382 |
| Yodgorov N. Dj., Aziza Davlatova | Tasviriy san'at darslarida obrazli tafakkumi shakllantirish usullari | 383–396 |

17.00.00 – San'atshunoslik fanlari

| | | |
|-------------------------------------|--|---------|
| Ishonxodjayev Umid | O'zbek xalq cholg'ularining milliy qadriyatlari targ'ibotidagi roli | 397–403 |
| Muratbekova J.S. | XX asr yevropada musiqa madaniyatining unikalligi | 404–410 |
| Nemalova T. A. | Zamonaviy kostyumlarda milliy nurola kashtalarining qo'llanilishi | 411–419 |
| Tursunova A.G. | Jahon musiqa tarixida I. S Bax va J. Kuperenlar sulolalarining o'mi va mavqeい | 420–428 |
| Raxmanova G. K., Nazarimbetov A. B. | Qoraqalpoq teatrining tashkil etilishi tarixidan | 429–434 |
| Xo'jamqulov Pirimqul | Ta'lim muassasalarida musiqa darslarini kreativ yondashuv asosida tashkil etish usullari | 435–445 |
| Mamikonyan T.A. | O'zbekiston xalq artisti K.K. Muxiddinov xotirasiga | 446–454 |
| Shaxnazarova B.A. | XIX asr musiqasida verizm | 455–462 |

19.00.00 – Psixologiya fanlari

| | | |
|------------------------------------|---|---------|
| Xudaynazarov S.I. | Tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari va kognitiv omillarning roli | 463–470 |
| Botirova B.D. | Pedagogik faoliyatda kasbiy so'nish jarayonini oldini olishning ilmiy-uslubiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari | 471–479 |
| Mirkosimova H.M. | Ta'lim muhitining o'zgarishi sharoitida kognitiv va affektiv empatiyaning pedagogik o'zaro ta'sir samaradorligi komponentlari bilan bog'liqligi | 480–486 |
| Babakulova Muqaddas, Rajabova Zebo | Bolalarni maktab ta'limga ijtimoiy-psixologik moslashtirish | 487–497 |
| Yuldasheva S.M. | Talabanining shaxsiy salohiyati psixologik-pedagogik kategoriya sifatida. | 498–504 |

Original paper



PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINI OLDINI OLİSHNING
ILMIY-USLUBIY VA İJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

© B.D. Botirova¹

¹Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada pedagoglarning kasblariga nisbatan faolligi va qiziqishini so'nishi mexanizmlariga e'tibor qaratilgan, shu bilan birga mazkur xolatdagi shaxslarga qanday yordam berish yo'llariga to'xtalib o'tilgan.

MAQSAD: pedagoglarda kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik jihatdan o'rganish hamda kasbiy so'nish profilaktikasi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnama, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: pedagoglarda kasbiy so'nish muammosining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida: pedagoglarda kasbiy so'nish jarayonining shakilanishiga ta'sir etuvchi chidamlilik, mijoz bilan aloqaning chuqurlashuvi, lokus nazorat, teskari aloqa, qarshilik ko'rsatish uslubi, o'z-o'zini baholash, o'zi faoliyat olib borayotgan muassasadagi munosabatlar, nevrotizm (tashvishlanish), mehnat ob'ektiga nisbatan bo'lgan munosabat, ekstroversiya kabi ijtimoiy-psixologik omillar empirik tadqiqotlar asosida aniqlangan.

XULOSA: masala bo'yicha nazariy va empirik natijalar asosida pedagoglarda kasbiy so'nish jarayoning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari xamda omillarini tahlil qilish va kasbiy so'nish profilaktikasi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, shuning uchun ham pedagoglarning kasblariga nisbatan faolligi va qiziqishini so'nishi mexanizmlariga e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: kasbiy so'nish, xissiy so'nish, kasbiy stress, kasbiy o'zlik, kasbiy "men"lik, kasbiy malaka, kasbiy hamkorlik, kasbiy layoqat.

Iqtibos uchun: Botirova B.D. Pedagogik faoliyatda kasbiy so'nish jarayonini oldini olishning ilmiy-uslubiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari. // Inter education & global study. 2025. №5. B.471-479.

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ВОЗМОЖНОСТИ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРОЦЕССА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО
ВЫГОРАНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

© Ботирова Д.Б.¹

¹Ташкентский государственный университет востоковедения, Ташкент,
Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статьеделено внимание механизмам утраты активности и интереса педагогов к своей профессиональной деятельности, а также рассмотрены способы оказания помощи лицам, находящимся в таком состоянии.

ЦЕЛЬ: эмпирическое изучение социально-психологических особенностей процесса профессионального выгорания у педагогов, а также разработка практических рекомендаций по его профилактике

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования использовались такие методы, как интервью, социально-психологическое анкетирование, наблюдение, а уровень статистической достоверности полученных результатов подтверждался факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на основе результатов проведённого научного исследования по изучению социально-психологических особенностей проблемы профессионального выгорания у педагогов были эмпирически выявлены такие социально-психологические факторы, влияющие на формирование процесса профессионального выгорания у педагогов, как устойчивость, углубление контакта с клиентом, локус контроля, обратная связь, стиль сопротивления, самооценка, взаимоотношения в учреждении, где работает педагог, нейротизм (тревожность), отношение к объекту труда, экстраверсия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: на основе теоретических и эмпирических результатов были проанализированы социально-психологические особенности и факторы процесса профессионального выгорания у педагогов, а также разработаны практические рекомендации по его профилактике. В связи с этим целесообразно уделить внимание механизмам снижения активности и интереса педагогов к своей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: профессиональное выгорание, эмоциональное выгорание, профессиональный стресс, профессиональная идентичность, профессиональное Я, профессиональная компетентность, профессиональное сотрудничество, профессиональная компетентность

Для цитирования: Ботирова Д.Б. Научно-методические и социально-психологические возможности предупреждения процесса профессионального выгорания в педагогической деятельности. // Inter education & global study. 2025., №5. С. 471–479.

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES FOR PREVENTING PROFESSIONAL BURNOUT IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

© Dilafroz B. Botirova¹

¹Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article focuses on the mechanisms behind the decline of teachers' professional activity and interest in their work, as well as discusses ways to provide support to individuals experiencing this condition.

AIM: the study aims to empirically examine the social and psychological characteristics of the professional burnout process in teachers and to develop practical recommendations for its prevention.

MATERIALS AND METHODS: during the research, such methods as interviews, socio-psychological questionnaires, observation were used, and the level of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: based on the results of scientific research conducted to study the social and psychological characteristics of the problem of professional burnout in teachers, several socio-psychological factors influencing the development of professional burnout were empirically identified. These include resilience, depth of interaction with clients, locus of control, feedback, coping style, self-esteem, relationships within the institution where the teacher works, neuroticism (anxiety), attitude toward the object of labor, and extraversion.

CONCLUSION: based on theoretical and empirical findings, the social and psychological characteristics and factors of the professional burnout process in teachers were analyzed, and practical recommendations for its prevention were developed. Therefore, it is advisable to pay attention to the mechanisms behind the decline in teachers' professional activity and interest.

Keywords: professional burnout, emotional burnout, professional stress, professional identity, professional self, professional competence, professional cooperation, professional competence

For citation: Diafroz B. Botirova (2025). Scientific-methodological and socio-psychological possibilities for preventing professional burnout in pedagogical activity. Inter education & global study, (5) pp. 471–479. (In Uzbek).

Surunkali stress fonida rivojlanadigan va mehnat faoliyatida xodimning hissiy, energetik va shaxsiy resurslarining so'nishiga olib keladigan sindrom bu kasbiy so'nish hisoblanadi. Kasbiy so'nish salbiy his-tuyg'ulamning ichki to'planishi natijasida paydo bo'lib, ulardan tegishli "qutulish" yoki "ozod qilinmaslik" bu jarayonning kuchayib borishiga olib keladi. Umumy olganda, kasbiy so'nish - bu qayg'u yoki umumiyl moslashish sindromining uchinchi - so'nish bosqichidir.

Chet el adabiyotlarida so'nish sindromi kuyish (inglizcha) atamasi bilan "so'nish", "qiziqishning zaiflashishi" ma'nolarini anglatadi. Kasbiy so'nish fenomeni bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

Kasbiy so'nish – bu kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning mavjud psixologik tuzilishining yo'qolishi, o'zgarishi yoki deformatsiyalanishidir.

Kasbiy so'nish sindromi - bu psixologik, psixofiziologik va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga olgan mehnat faoliyatidagi stressga nisbatan salbiy reaksiyadir. Ishdagi stressning oqibatlari og'irlashgani sayin, insonning ma'naviy va jismoniy kuchi zaiflashadi, u kuchsizlanadi, sog'lig'i yomonlashadi. Boshqalar bilan aloqalarning pasayishiga charchoqlik olib keladi va bu, o'z navbatida, yolg'izlikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Ish faoliyatida odamlarning motivatsiyasi pasayadi, ishga befarqlik rivojlanadi, mehnat sifati va unumdorligi sustlashadi. [1]

Kasbiy charchash yoki so'nish boshqacha qilib aytganda - bu odam uzoq vaqt davomida o'rtacha stress ostida bo'lganligi sababli paydo bo'ladigan uzoq davom etadigan stress reaksiyasi yoki sindromidir. Shuning uchun ko'plab tadqiqotchilar o'qituvchining hissiy charchashini aqliy yoki kasbiy charchoq sindromi deb ham atashadi.

Amerikalik psixiatr G. J. Freydenberger buni ruscha "to'yganlik" degan ma'noni anglatuvchi "burnout" deb atagan. Ko'pincha bu so'z so'zlashuv ingliz tilida giyohvandlik haqida gap ketganda ishlataladi. Ular ta'lim sohasi haqida gapirganda, o'z ishiga juda kuchli kirishib ketgan o'qituvchilarning qaramligini bildiradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, kasbiy so'nish ko'proq yoshi 35-40 yoshdan oshgan odamlarda uchraydi. Bu vaqtida ular tajribali mutaxassis bo'lib, farzandlari ulg'ayib, ularga kamroq kuch sarflaydilar. Bu professional yuksalish bo'lishi kerak bo'lgan paytga o'xshaydi, ammo hamma narsa butunlay boshqacha tarzda sodir bo'ladi. Ya'ni, o'qituvchi o'z ishida kamroq faol bo'ladi, uning motivatsiyasi yo'qoladi, charchoq kuchayadi. Ko'pincha juda yaxshi o'qituvchi kasbiy charchaganligi sababli mакtabda ishlashga yaroqsiz bo'lib qoladi. Bunday vaziyatlarda ayrim pedagoglar o'z ish joyini ta'lim bilan bog'liq bo'lmasligi uchun o'zgartiradilar, lekin bari bir bolalar bilan mashg'ulotlarni juda sog'inadilar[2].

Xo'sh so'nish sindromi qanday namoyon bo'ladi? Agar o'qituvchining kasbiy so'nishi o'z vaqtida sezilmasa yoki uni bartaraf etish uchun ataylab hech qanday chora ko'rilmasa, bu shaxsning o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

O'qituvchining kasbiy so'nishini ko'rsatadigan asosiy belgilari:

- uyqusizlik;
- charchoq;
- psixosomatik asoratlari;
- maktab o'quvchilari va hamkasblariga nisbatan salbiy munosabat;
- o'z kasbiga nisbatan salbiy munosabat, ishlashni istamaslik;
- o'z vazifalarini bajarishga beparvolik;
- psixostimulyatorlar hajmining oshishi;
- ishtahaning yo'qolishi yoki ortiqcha ovqatlanish;
- o'ziga past baho berish;
- tajovuzkorlikning kuchayishi;

- passivlikning kuchayishi;
- aybdorlik hissi.

So'nish asta-sekin rivojlanadi: birinchi navbatda, hissiy charchoq hissi paydo bo'ladi, keyin qattiq charchoq yuzaga keladi, bu esa bir muncha vaqt o'tgach, umidsizlikka aylanadi, o'qituvchi endi bu kasbga qiziqmasligini va ishga borish istagi yo'qligini tushunadi. [2]

So'nish sindromining eng keng tarqalgan modeli 1981 yilda ishlab chiqilgan K. Maslach va S. Jekson bo'lib, ular hissiy charchashni uchta asosiy komponentga ajratdilar:

1. Emosional charchoq nochorlik, umidsizlik, tanazzul, charchoq hissi, energiya tonusi va ish sifatining pasayishi, jismoniy kasalliklarning paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, his-tuyg'ulari yo'q shaxs, boshqalarda muammolar va umuman his-tuyg'ularni keltirib chiqarmaydi.

2. Ikktnchi komponent - depersonalizasiya, bu boshqalar bilan o'zgargan munosabatlarda kuzatilishi mumkin. Ba'zilar uchun bu boshqa odamlarga qaramlikning ko'rinishi, kimdir, aksincha, hech kim bilan muloqot qilishni istamaydi va odamlarga salbiy munosabatda bo'ladi. Depersonalizatsiya rivojana boshlaganda, o'qituvchida bolalarni alohida shaxslar sifatida ko'rishni to'xtataydi. O'qituvchi o'quvchilardan yomonlik kutgani uchun ulardan uzoqlashadi. Salbiy reaksiyalar aloqa qilishni istamaslik, bolalarga nisbatan kansituvchi munosabat, ularning iltimoslarini e'tiborsiz qoldirishga olib kelishi mumkin.

3. Oxirgi komponent - qisqartirilgan professional amaliyat. Bu salbiy o'z-o'zini tanqid qilish, o'z kasbi va undagi muvaffaqiyatiga, xizmatdagи fazilatlari va mahoratiga salbiy baho berish yoki o'z qadr-qimmatini kansitish, o'z imkoniyatlarini va boshqalar oldidagi majburiyatlarini kamaytirish orqali ifodalanishi mumkin. Kuchlanish bilan kurashish uchun manbalar har bir insonda turli xil resurs profili ega bo'lib, u professional charchashni yengish va uni yengish yo'llarini topishga yordam beradi [2].

Shunday qilib, inson hayotda ishdan tashqari juda ko'p qiziqarli va muhim narsalar borligini tushunadi. Va butunlay boshqacha holat - odam doimiy stressda bo'lsa, u oilada muammolarga duch keladi, bo'sh vaqt yetarli emas yoki u o'zini o'zi yuq qilishga sarflaydi va uning resurslari tugaydi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kasbiy charchash sindromini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Ushbu hodisa bo'yicha ba'zi xonijiy va MDH mamlakatlari olimlarining fikrlarini ko'rib chiqamiz.

1. Gerbert Freydenberger "Xodimlarning so'nishi" ortib borayotgan hissiy charchoq bilan tafsiflanidigan holatdir. Bunday holat ko'pincha "odam-odam" sohasida ishlaydigan mutaxassislarda kuzatiladi.

2. Kristina Maslach. Emotsional charchash - o'z kasbiy burchlariga befarqlik va g'azablanishning namoyon bo'lishi, qadrsizlik hissi bilan birga kechadigan holatdir. Buning asosiy sababi kasbiy muloqotdan kelib chiqqadigan ruhiy va jismoniy ortiqcha ish, emotsional ortiqcha yuklanish hisoblanadi.

3. Boyko V.V. Kasbiy charchash - bu insonning energiya zahiralaridan tejamkorlik bilan foydalanishga imkon beradigan "funksional stereotip". Kasbiy so'nish sindrom

nafaqat noqulay bo'lishi balki, so'nishning o'zi konstruktiv bo'lsa ham uning oqibatlari salbiy-halokatlari bo'lishi mumkin.

4. Ananev B.G. "Hissiy charchash" - bu salbiy hodisa bo'lib, u doimiy shaxslararo muloqotni talab qiladigan ijtimoiy ish bilan uzviy bog'liq bo'lgan odamlarda kuzatiladi.

5. Orel V.E. "Ruhiy charchash" murakkab psixofiziologik hodisa bo'lib, u uzoq davom etadigan hissiy stress tufayli yuzaga keladigan ruhiy charchoq va jismoniy charchoq sifatida tavsiflanadi. U uchta rivojlanish darajasiga ega: individual, shaxslararo va tashkiliy.

6. Vodopyanova N.E. So'nish - bu psixofiziologik va xulq-atvor komponentlaridan tashkil topgan jarayon bo'lib, u ish stressiga salbiy reaksiyadir. Doimiy ortiqcha yuklamali va uzoq muddati ish natijasida stresslarning to'planishi va insonning hayotiy energiya ta'minotining kamayishi bilan birga keladi.

M. Burishning fikricha, kasbiy so'nish sindromi jarayonli xarakterga ega bo'lib, bir qancha progressiv bosqichlar va tegishli bosqichlarni bosib o'tadi

So'nggi yillarda so'nish sindromi, ayniqsa, ta'lif rahbarlari va o'qituvchilarining e'tiborini tortmoqda. Bu mutaxassislarining, ayniqsa, "yordamchi" kasblarda, shu jumladan o'qituvchilik sohasida kasbiy so'nish sezilmasdan boshlanishi va dastlabki bosqichlarda tashkilot uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmasligi bilan izohlanadi. Biroq, uzoq muddatda bu jiddiy oqibatlarga olib kelishi va muassasa uchun juda qimmatga tushishi mumkin. [4]

Ikkita asosiy yo'nalishda o'qituvchilarning kasbiy pasayishiga yo'l qo'ymaslik tavsiya etiladi:

O'qituvchilar uchun tashkiliy ish sharoitlarini optimallashtirish: Bu qulay va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratishni o'z ichiga oladi, jumladan:

- Qulay va funktsional ish joyini ta'minlash.
- Aniq ish tavsiflari va majburiyatlarini belgilang.
- Mukofot va jazolashning konstruktiv tizimini joriy etish.
- Ishchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va manfaatlarini himoya qilish.
- Mehnatni muhofaza qilishning samarali tizimini ishlab chiqish.
- O'qituvchilar uchun rasmiy va norasmiy xulq-atvor standartlarini shakllantirish.
- Muassasada yuqori tashkiliy madaniyatni shakllantirish va uni rivojlantirish.
- Professional va ma'muriy yordam ko'rsatish.

O'qituvchilarning shaxsiy resurslarini yangilang: Bu motivatsiya va samaradorlikni saqlash uchun muhim, jumladan:


- Malaka oshirish bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazish.
- Ta'lif resurslaridan foydalanish va o'z-o'zini ta'lif olish imkoniyatlarini ta'minlash.
- Shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.
- O'qitish madaniyati va shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashish.
- Doimiy takomillashtirish uchun muntazam baholash va fikr-mulohazalarni o'tkazish.

O'qituvchilarning kasbiy so'nishini oldini olishning birinchi yo'nalishi tashkiliy sharoitlarni optimallashtirish va o'qituvchining shaxsiy resurslarini yangilashni o'z ichiga oladi. [5]

Pedagoglarda kasbiy so'nish jarayonining o'rganish bo'yicha qator psixometrik metodikalarni o'tkazdik Jumladan kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish maqsadida o'zimiz tomonimizdan ishlab chiqilgan 20 savoldan iborat bo'lgan "Pedagoglarda kasbiy so'nishning ijtimoiy-psixologik omillari"ni o'rganish bo'yicha so'rovnoramadan (IPS) foydalandik.

So'rovnoramadan olingan natijalardan ma'lum bo'lishicha, pedagoglarda kasbiy so'nish jarayonining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi jamoadagi shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar, jamiyatda o'qituvchilik kasbi nufuzining pastligi, maoshning yetarli emasligi, jamodagi muhitning nosog'lomligi, jamoa faoliyatidaadolatsizliklarning uchrab turishi, jamoadagi shaffoflikning yetarli emasligi, jamoa a'zolaridagi hamkorlikning yetarli emasligi, ish sharoiti, moddiy-maishiy imkoniyatlarning yaratilmaganligi, pedagogik faoliyatda ish yuklamasining yuqoriligi, o'quvchilarning tarbiyasi, xulq-atvoridagi nuqsonlar kabi omillar aniqlandi.

Jumladan, "Siz o'qituvchilik kasbida qiziqishning pasayishiga nimalar sabab bo'ladi deb o'ylaysiz?" deb, berilgan savolga respondentlar tomonidan "maoshning yetarli emasligi" (24,2%) eng yuqori ko'rsatgichni tashkil qilgan bo'lsa, "jamiyatda o'qituvchilik kasbi nufuzining pastligi" (21,3%) omili ikkinchi asosiy sabab sifatida ko'rsatishgan. "Jamo faoliyatidagiadolatsizliklar (20,2%) va "Jamoadagi muhitning nosog'lomligi" (18,4%) omili ham yuqori darajani ifodalaganligi kuzatildi. (1 rasm)



Ko'rsatgichlarni taxlil qiladigan bulsak mazkur omillar ham pedagoglarni kasbiy so'nishiga olib kelayotgan asosiy omillar ekan, shu sababli biz jamiyatda o'qituvchilar obro'-nufuzini oshirishga qaratilgan maqsadi va manzilli targ'ibot ishlarini kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq ekan. Qolaversa biz tadqiqotimiz davomida o'qituvchilar jamoasida

sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish va jamoadagi konformizm xodisasiga alohida e'tibor qaratdik. [5]

Foiz ko'rsatgichlari tahliliga ko'ra, maoshning yetarli emasligi, jamiyatda o'qituvchilik kasbi nufuzining pasayib borishi, jamoa faoliyatidagiadolatsizliklar va pedagogik jamodagi muhitning nosog'lomligi holatlari pedagoglarda kasbiy so'nishning asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Demak so'rovnomalar natijalaridan ma'lum bo'lishicha, pedagoglarda kasbiy so'nish jarayonining kelib chiqishiga jamoadagi shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar, jamiyatda o'qituvchilik kasbi nufuzining pastligi, maoshning yetarli emasligi, jamodagi muhitning nosog'lomligi, jamo faoliyatidaadolatsizliklarning uchrab turishi, jamoadagi shaffoflikning yetarli emasligi, jamoa a'zolaridagi hamkorlikning yetarli emasligi, ish sharoiti, moddiy-maishiy imkoniyatlarning yaratilmaganligi, pedagogik faoliyatda ish yuklamasining yuqoriligi, o'quvchilarning tarbiyasi, xulq-atvoridagi nuqsonlar kabi omillar ta'sir etar ekan. Biz pedagoglar orasidagi kasbiy so'nishga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarda albatta mazkur ijtimoiy -psixologik omillarni inobatga olishimiz maqsadga muvofiq ekan

Xulosa qilib aytganda pedagogik faoliyatdagagi kasbiy so'nish jarayoning ijtimoiy-psixologik omillari muammosini o'rganish pedagogning kasbiy faoliyati samaradorligiga, qiziqish va motivasiyasining shakllanishiga imkon beradi va o'qituvchilar faoliyatini psixologik-pedagogik jihatdan tashkil etish bo'yicha tavsiyalarni shakllantirish orqali kasbiy faoliyatda ijtimoiy-psixologik xatarlarning oldini olishga hamda ijtimoiy-psixologik mazmundagi salbiy oqibatlarning oldini olishga yordam beradi

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Botirova D.B. SOCIAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE PROCESS OF PROFESSIONAL STRESS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY. Pover System Technology. Volume 48 Issue 4 (Desember 2024)
2. Львова Ю. Л. Социально-педагогические проблемы развития профессиональной и общественной активности учителей / Ю. Л. Львова. – Москва: Сфера, 2012.
3. Лэнгле А. Эмоциональное выгорание с позиций экзистенциального анализа. // Вопросы психологии. - 2008.
4. Мадалиева З.Б. Эмоциональное состояние учителя: особенности проявления и способы регуляции /Автореферат дис.к.пс.н. Т.:2009
5. Botirova D.B. Scientific and theoretigal basics of the process of professional characteristics of the process of professional withdrawal in educators. Вестник интегративной психологии. – Ярославл, 2023

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Botirova Dilafro'z Bozorovna**, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasи katta o'qituvchisi [Ботирова Диляфруз Бозоровна кандидат философских наук по психологии(PhD), старший преподаватель кафедры «Педагогика и psychology»], [Dilafroz Bozorovna Botirova, PhD in Psychological Sciences, Senior Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology]; manzil: O'zbekiston, Toshkent sh. [адрес: Узбекистан, г. Ташкент], [address: Uzbekistan, Tashkent city]